

TA'LIM ORQALI KO'RISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARING BOSHQA ANALIZATORLARINI RIVOJLANTIRISH ASPEKTLARI

Rahimova Dilnoza Hoshimjon qizi

Namangan davlat universiteti

Biologiya fakulteti fiziologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti.

Mirzaolimov Elmurod Ismoilovich

Namangan davlat universiteti

Tibbiyot fakulteti Fiziologiya kafedrasи

Katta o'qituvchisi, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni erta aniqlab, ularga tashxis qo'yish va nuqsonni erta bartaraf etish, bolalarni tasviriy faoliyat jarayonida nutqini rivojlanirishning umumiy va maxsus didaktik tamoyillarini, shakli, mazmuni, metodlari haqida so'z boradi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga samarali ta'lim, tarbiya berish, ijtimoiy moslashuvini yaratish uchun uning rivojlanish imkoniyat va xususiyatlarini to'g'ri baholay olishga bog'liqdir.

Annotation: The article talks about early detection of children with injuries in production and early diagnosis and treatment of injuries, general and special actions, form, content, and methods of developing children's speech in the process of visual activity. Effective education and upbringing of children with developmental disabilities, social adaptation, and support for their development depend on the ability to correctly evaluate them.

Kalit so'zlar: Rivojlanish, analizatorlar, nuqson, nutqini shakllantirish, surdopedagog, korreksion, konsept.

Key words: Development, analyzers, point, speech monitoring, deaf pedagogue, correction, concept.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha va muktab ta'lifi muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu bolalarni psixik va jismoniy rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim sharoitlar yaratilgan. Bunday sharoitlardan avvalo har bir bolaning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yakka yondashuvni talab etadi. Ushbu yondashuv maxsus dastur, metod, kerakli maxsus texnik vositalarni, maxsus tayyorgarlikga ega pedagog, psixolog, defektolog va boshqalar bilan birgalikda kerakli tibbiy-profilaktik hamda davolov tadbiralarini, maxsus ijtimoiy yordamni, maxsus ta'lim muassasalarini tehnik va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda turli xil maxsus ta'lim muassasalari mavjud. Bolalarni puxta saralash natijasida qabul qilinishi mo'ljalangan va O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalar bilan bir qatorda turli reabilitatsiya markazlari, rivojlanirish

markazlari, aralash guruqlar ochilgan. Shuningdek, umumta'lim maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarda psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni uchratish mumkin.

Bunday nuqsonlarning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Son jihatdan yirik bo'lgan guruhni harakatlanish, sensor yoki intellektual sohalarda nuqsonlari aniq ifodalanmagan: eshitishda, ko'rishida, fazoviy-idrok tassavurlarida, harakat-tayanch apparatida, fonematik idrokida nuqsoni bo'lgan, hissiy-irodaviy buzilishli, nutqiy rivojlanishida kamchiliklarga ega, xulq buzilishlariga ega, psixik rivojlanishi orqada qolgan, somatik sust bolalar tashkil etadi. Yaqqol ifodalangan psixik yoki jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar maktabgacha yoshda aniqlansa, yengil nuqsonlar uzoq vaqt mobaynida e'tiborsiz qoladi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik-jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - rivojlanishdagi nuqsonlarni differential tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga ko'ra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning ta'lim olishlari uchun ta'lim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yo'llanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differential diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich - fenomenologik. Uning maqsadi - bolaning individual xususiyatlari, ya'ni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi o'rganilib u bilan ishlash bo'yicha korreksion rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir.

Ko'rish idroki. Ko'rish analizatorlari yordamida kishi predmetlarning rangini, shaklini, hajmini, katta-kichikligini, harakat va harakat yo'nalishini aniqlaydi. Ko'rish idroki funksiyalarining buzilishi atrof-voqelikni bilishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, bu predmetlar olami haqidagi hissiy ma'lumot va uning nutqiy talqini o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi. Ko'r va zaif ko'rvuchilarda ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi analizatorlar ichida yoki analizatorlar orasida yangi bog'lanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'rvuchi shaxslarga nisbatan bularda u yoki bu analizatorlar tizimi faollashadi, rivojlanadi. Ko'r yoki zaif ko'rvuchi shaxslardagi ko'rish analizatorlaridagi bu nuqson oqibatida normal ko'rvuchi shaxslardagidan farqli ravishda, o'ziga xos analizatorlararo munosabatlar yuzaga keladi. Bu holat o'ziga xos bo'lgan, faqatgina shu toifa nuqsonlargagina tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Ko'rishning zararlanish oqibatlari birinchi galda sezilarli ta'sir etadi. Mashhur psixolog B.G. Ananyev g'oyalariga tayanadigan bo'lsak, sensor

taraqqiyot normada ham nuqsonda, ham bir yo‘nalishda ketib ularning qonuniyatlariga bo‘ysunar ekan. Fiziolog A.A. Uxtomskiy ta’biricha, «eshitish — inson sezgi a’zolaridan eng asosiysidirki, insonning inson darajasiga yetishida katta rol o‘ynaydi». Demak, ko‘rishdan keyin inson hayotida, bilim egallashida, inson bo‘lib yetishishida eshitish analizatorlari turar ekan. Ma’lumki, ko‘rlar qatoriga, toifasiga ko‘rish o‘tkirligi 0 dan 0,04 gacha bo‘lganlar kirsa, zaif ko‘rvuchilarga 0,05 dan 0,2 gacha bo‘lgan shaxslar kiradi. Ko‘rlar uchun eshitishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, A. Krogius shunday yozadi: «Ko‘rlik haqida gapirganda aslida tuyish sezgilari orqali olingan bilimlar haqida fikrlaymiz. Ammo, ko‘rlarni uzoq muddat kuzatishlar asosida shunga amin bo‘ldimki, bizlarga ko‘rish qancha ahamiyatga ega bo‘lsa, eshitish ko‘rlar uchun shunchalik ahamiyat kasb etar ekan». Bu fikrlar R. Dyufoga tegishli fikrlardir. Ko‘rlar va zaif ko‘rvchi shaxslar uchun eshitish dunyonи bog‘liqli bilishda, fazoviy va ijtimoiy moslashuvlarida katta rol o‘ynaydi. Hid bilish jarayonlari ham ko‘rlarda o‘ziga xos tarzda rivojlanar ekan. O.I.Skoroxodova bemalol non, oziq-ovqat, sanoat va boshqa tur magazinlarni hech bir qiyinchiliksiz farqlay olgan. Idrok ruhiy va asab tizimida o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, uning maxsus markazi bosh miyada joylashgan. Shaxsning hayot tarzi, ish faoliyatining harakatiga qarab biror analizator dominant — yetakchi bo‘ladi. Ushbu shaxsda o‘sha idrok turi kuchli bo‘ladi. Ko‘pgina sog‘lom kishilarda ko‘rv idroki yetakchidir.

Ma’lumki, nutq-odamlarning til vositasi bilan aloqa bog‘lashlaridir. Odam nutq orqali munosabatga kirishib, o‘zining bilimlarini faqat yakka tajriba hisobiga emas, balki juda ko‘p avlod-ajdodlar tomonidan to‘plangan ijtimoiy tarixiy tajriba hisobidan ham boyitadi. Nutq barcha aks ettirish jarayonlari kabi har bir odamning yakka hayoti davomida o‘zlashtiriladi. Bola dastlabki nutqni egallayotgan davrda uning nutqi tovushlarga bo‘lgan reaktsiyasi juda umumlashgan xarakterga ega bo‘ladi. Bolani nutqi rivojlanayotganda, u atrofdagi odamlar muloqoti ta’siri ostida rivojlanib boradi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqi, lug‘at boyligi oshishida va rivojlanishida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish analizatori turg‘un pasayganligi tufayli ularning nutqida ko‘pgina kamchiliklar kuzatiladi, lug‘atining kambag‘al bo‘lishi, gramatik komponent rivojlanmagan, gap ichida so‘zlarni tashlab ketishi, so‘zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz etish, so‘zlarni o‘zaro bog‘lay olmaslik, kelishik, so‘z yasovchilarni, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘srimchalarni ishlata olmaslik, o‘xhash jarangli va jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish shular jumlasidandir. ENB bolalar maktabida ta’lim tizimining bosh maqsadlaridan birini yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etgan holda nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishdir.

Nutqini shakllantirish va nutqini logik idrok eta olishni faqatgina nutq o‘stirish darslarida emas, balki har bir darslarda, to‘garaklarda lug‘at boyligi oshirib boriladi.

Birinchi sinfda o‘quvchilarga qoyiladigan talab, nutqiy materialni og‘zaki daktilda talaffuz qilish orqali lug‘at boyligi oshiriladi. Muloqot malakasini xosil qilish astasekin nutq materialini atrofdagi odamlar bilan o‘zaro bir-birlarini tushunish uchun zarur. Har bir chorak uchun mavzudan kelib chiqqan holda nutqiy material beriladi. S.A.Zikovning ta’kidlashicha, kar bolalarni tilga o‘rgatish ishining maqsadga muvofiq sistemasini kommunikativ funktsiyasini amalga oshirish kerakdir. Bunda har bir yil uchun tuzilgan reja, dastur o‘quvchilarning nutq egallashlari amal qilgan holda o‘zlashtiriladi. Har bir so‘z va so‘z birikmasi o‘zida kommunikativlik ma’suliyatini olgan bo‘ladi.

Surdopedagog o‘quv jarayoniga asosiy ta’sir etuvchi shaxsdir, u o‘qitishning har bir bosqichida dastur talabiga asoslangan holda o‘quv jarayonlarini tashkil etadi. Ularga rahbarlik qiladi. Sog‘lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalar nutqini egallashni, o‘z atrofdagi odamlarga taqlid qilishdan boshlaydilar. Kar bolalarni taqlidi nutq organlarini xarakatini ko‘rish orqali egallashlariga asoslanadi. Zaif eshituvchi bolalarni nutqga o‘rgatishda ularning atrofdagilardan eshitgan so‘zlaridan foydalanadilar. Shuning uchun surdopedagog o‘zining nutqiga talabchan bo‘lishi kerak. Lekin o‘quvchilarning imkoniyatiga qarab so‘zlarni qisqartirish, birlashtirish mumkin emas. Bu talablar nutqiy malakani oshirishning hamma turlari uchun qo‘llaniladi. Tasviriy faoliyat darslarida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar qanday faoliyatga kirishsalar, qanday predmetni chizishlari va qaysi o‘quv quroollaridan foydalanish bosqichlari albatta surdopedagog tomonidan nutqiy boshqarilib boriladi. Har qanday faoliyat ENB bolalarni nutqini aktivlashtirish, shakllantirishga, lug‘atini boyitishga qaratilgan. O‘qituvchi har bir dars uchun lug‘at tanlashi kerak. Lug‘at tuzishdan oldin o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarni eshitish darajasini xisobga olishi kerak. Lug‘at boyligini oshirish quyidagicha amalga oshiriladi. Nutqni rivojlantirish surdopedagog tomonidan bolalarda predmetning katta-kichikligi, shakli tushunchalari shakllanadi.

So‘z va ibora, idrok qilish orqali mustahkamlash (rangning nomi, geometrik shakli, hajmini belgilab olish). Birinchi gruppadagi so‘zlarni tasviriy faoliyatda sekinsta o‘zlashtirib boriladi. Ikkinci grupper so‘z (so‘z-predmetning nomi) - tartib boyicha bolalar topish. Tasviriy san’at faoliyatida so‘zlar predmet bilan yangicha bog’lanishi. Uchinchi va to‘rtinchi guruhdagi so‘zlarga alohida ahamiyat beriladi. Bolalarning diqqatini predmetga va uning xususiyatiga qaratiladi. So‘ngra esa bolalar idrok qilgan obrazi mustahkamlanadi. Masalan: Tasviriy faoliyatda olma rasmini tasavvur orqali chizish jarayonida o‘qituvchi olma shakliga o‘xshaydi. Yuqorisida chuqurchasi bor chuqurchasida dumchasi bor. Aytilayotgan so‘zlar quyiladigan cho‘ntakchaga quyiladi. Mashg‘ulot uchun olingan lug‘at aniq ko‘rsatilishi lozim.

Tasviriy faoliyatda foydalanilayotgan nutq materialining ko‘p qismi bolalarga tanish bo‘lishi lozim. O‘qitishning 1-2 yilida tartibli har bir mashg‘ulotga ikkitadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas. O‘qitishning keyingi yillarda 3-4 tadan ortiq yangi so‘z berish mumkin emas. Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar tasviriy faoliyatida o‘quvchilarning lug‘ati ortadi, nutqi aktivlashtiriladi. Rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar shaxs sifatida shakllanishlarida nutqning rivojlanish ahamiyati katta. Shunday ekan yuqorida aytib o‘tganimizdek, har bir faoliyatda bolalar nutqini rivojlantiriladi. Har bir tasviriy faoliyat darsida, chizishdan oldin mavzudan kelib chiqqan holda suxbat, savol javob o‘tkaziladi. O‘qituvchi sinfda bolalar soni kamligi tufayli, har bita bola bilan og‘zaki muloqotga kirishish, imkoniyatiga ega. O‘quvchilar rasm chizishda analiz-sintez qilishga, rasmlarni ajratishga o‘rgatiladi.

Zamonaviy maxsus psixologiya psixikani kelib chiqishining ijtimoiy tarixiy nomiga asoslanadi. Uning rivojlanishiga bola psixikasini madaniy-tarixiy tajribaga tayanib hayot davomida shakllanishi haqidagi rus psixolog L.S. Vigotskiy fikrlari katta ta’sir ko‘rsatgan. L.S. Vigotskiyning ko‘rsatishicha oliy psixik funksiyalar tarixiy rivojlanish maxsuli bo‘lib murakkab tuzilishga ega. Ushbu xususiyat ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, u insondagi faqatgina oliy psixik funksiyalarining emas, balki elementar psixik jarayonlarni, ya’ni fonematik eshituv, ovozlarni eshituvlarni va xokazolarni o‘z ichiga oladi. Psixik faoliyatning murakkab shakllarini yuzaga kelishiga olib keladigan ijtimoiy tajribani tayyor mazmunni o‘zlashtirib olish jarayoni sifatida qarash mumkin emas.

Bola tomonidan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish bilim, ko‘nikma, madaniy madaniy malakalarni egallab olishdangina iborat bo‘lmay, shuningdek o‘ziga bolaning shaxsi, ehtiyojlari, motivlarini shakllantirishni kiritadigan chuqur, murakkab jarayondir. Ijtimoiy tajribani egallash bolaning faol faoliyatida, ya’ni - predmetli, o‘quv, muloqot va o‘yin jarayonlarida amalga oshiriladi. Ilk rivojlanish davrilari dayoq bolalarni kattalar bilan o‘zaro muloqatga kirishishida oliy psixik funksiyalarining shakllanishi muhim o‘rin egallaydi. Psixik funksiyalarining rivojanishi bir nechta bosqichlardan o‘tadi va shundan keyingga ular murakkab psixik jarayonga aylanadi. Psixik faoliyatning barcha murakkab shakllari (ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira, mavxum tafakkur va h.q.) bilvosita tuzilishga ega bo‘lib, unda nutq bosh rolda keladi. Predmet va xodisalar mavjud emas vaqtida ham ularni o‘rnini so‘z egallaydi va har qanday psixologik jarayonni kechishini ifodalab, uning tuzilishini bir qismi bo‘lib qoladi. Nutq oliy psixik funksiyalarining tuzilishi va amalga oshirishini yangi, yana ham yuqori darajaga ko‘taradi. Oliy psixik funksiyalarini shakllanishining muhim tomoni – simvolik ramziy faoliyatning tashkil topishi, so‘z belgilarini egallahdir. Dastavval belgi tashqi, yordamchi omil sifatida qatnashadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar (rivojlanishida psixik- jismoniy kamchilikka ega, rivojlanishdan orqada qolish, rivojlanishida muammoga ega, alohida yordamga muhtoj) - sensor organlarning orttirilgan yoki tug‘ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki tayanch-harakat apparati va psixik funksiyalarning meyorda rivojlanishida kamchiliklarga ega bo‘lgan bolalar kiradi. Ba’zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog‘liq bo‘lmashdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqadi. Bularga oiladagi tarbiya salbiy shakllari, ijtimoiy va hissiy deprivatsiyani kiritishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishini ko‘ra ikki guruhga ajratish imkonini bergen. Bu kasallikning biologik xarakteriga ko‘ra kelib chiqadigan birlamchi nuqson, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof- olam o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsondir. Anomal rivojlanish birlamchi nuqsonning kelib chiqish vaqt va uni fodalanishining qay darajada og‘irligi bilan aniqlanadi. Ikkilamchi nuqsonlarning shakllanish mexanizmi turli xil bo‘lishi mumkin, ammo unda doimo ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rvu, eshituv organlarining yoki bosh miyaning u yoki bu uzilmalaridagi jarohatlar natijasida kelib chiqadigan nuqsonlar xarakteri, chuqurligi bo‘yicha turli toifadagi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda turlicha bo‘ladi. Biroq ushbu holatlaming umumiy tomoni shundaki, ulaming barchasi bolani keyingi rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi.

Psixodiagnostik va psixologo-pedagogik koreksion ta’sirning obyekti bo‘lib ikkilamchi nuqsonlar xisoblanadi. Bir qancha yetakchi mutaxasislarning ishlarida ko‘rsatishicha, bolalardagi birlamchi nuqsonlar aqliy qobiliyatning tuzilishiga, umumiyligi va mayda motorikadagi kamchiliklarga, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lishdagi qiyinchiliklarga, kommunikativ muloqot vositalarini o‘zgarishiga, so‘zlashuv nutqining yetarlicha bo‘lmashligiga, atrof muhitni idrok olishni qiyinlashishiga, ijtimoiy tajribani kambag’allashuviga olib kelishi mumkin. Nuqsonlarning o‘zaro ta’siri ijtimoiy muhit bilan ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar tug‘dirishini L.S.Vigotskiy ham ta’kidlagan. J.I.Shifring ko‘rsatishicha, anomal rivojlanishning yana bir qonuniyati bola shaxsining rivojlanishidagi o‘zgarishlardir. Kayfiyatning yo‘qligi, ijtimoiy muloqotga vahima, qo‘rquv bilan kirishuv, o‘z-o‘ziga past baho berishi, xavotirda bo‘lish kabilalar ushbu shaxsning asosiy sifatlari hisoblanadi.

Shunday qilib, rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarning zamonaviy psixodiagnostikasi nazariy metodologik tizimlar asosida tuziladi va ular quydagilar hisoblanadi. Rivojlanish nuqsonlarining har bir turi o‘ziga xos psixologik tuzilmaga ega. Bu tuzilma birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni o‘zaro bog‘liqligi asosida aniqlanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarning har bir turida o‘ziga xos nuqsonlar

darajasining namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Rivojlanishdagi nuqsonlarni diagnostika qilish umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlar assosida tuziladi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarni diagnostika qilishda ularning umumiy xususiyatlarga tayanmasdan, balki boladagi ijobiy xususiyatlari va potensial imkoniyalariga tayanish zarur.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlarning diagnostika qilish natijalari psixologik-pedagogik diagnoz orqali o‘rnataladi, u rivojlanish nuqsonining turi bilan chegaralanib qolmaydi. U bola rivojlanishining individual psixofizik xususiyatlari, shuningdek individual korreksion ish dasturlarga tavsiyalar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Psixologo-pedagogik tashxis nuqsonining ifodalanish darajasini murakkablashtiruvchi yetakchi nuqsonlarni rivojlanishini aniqlab, ularga kerakli korreksion pedagogik ishga diqqatni qaratadi. Agar tekshiruv bolani maktabga borishidan oldin o‘tkazilsa, unda bolaning qaysi maktabga maxsus korreksion yoki umumta’lim maktabiga tayyorgarligi aniqlanadi. Rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning nutqini rivojlantirishda tasviri faoliyatning o‘rni katta. Bolalar tasvirlashga qiziqishlari yuqori bo‘lganligi sababli biror buyum yoki narsani tasvirlash jarayonida nomini qayta qayta takrorlash, tasvirlanish va nomlanishi murakkab buyum va narsalardan boshlamaslik kerak. Ba’zi bir xolatlarda nutqida muammosi bor bolalar bilan shug‘ullanishning o‘zi katta samara bermaydi.

Bolani erta tashxis qilib o‘rganishning muhimligi shundaki, u orqali bolani korreksion ta’limga vaqtida yo‘naltirib, ikkilamchi nuqsonlari paydo bo‘lishini oldini olish mumkin. Bola imkoniyatlariga baho berish hamda psixik rivojlanishini aniqlash orqali korreksion pedagogik ishning vazifalarini xal etish mumkin. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni har tomonlama o‘rganish zaruriyati tug’ildi. Ularning ruhiyatini yaxshi bilish, pedagogik jarayonini samarali kechishini ta’minlaydi. Nogiron, tug’ma kasalmand bolalar dunyoga kelishini ijtimoiy sabablarini o‘rganish, uni oldini olish, ularning dardlariga malham bo‘lish bu boradagi muammolarni hal etishdir. L. S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. U «Korreksion pedagogikaning assosiy muammolari» kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta’limni olib borish kerakligini, korrektsiya, kompensatsiya usullari va bularni yanada oshirish yo‘llarini ko‘rsatib berdi.

Ishning maqsadi: Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan maktab o‘quvchilarini eshituv analizatoridagi fizologik jarayonlarni sog’lom maktab o‘quvchilariga taqqoslash.

Tadqiqot usullari va materiallari: Tadqiqotlarimiz Namangan viloyat Kosonsoy tuman 45-sonli “Nurli maskan” maktab internatida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida maktabning yuqori sinf o‘quvchilarida amalga oshirildi. Kosonsoy tumaniga qarashli 45-sonli “Nurli maskan” maktab internatida jami 236 nafar o‘quvchilar ta’lim oladi. Jumladan 88 nafar qiz va 148 nafar o‘g’il bola. O‘quvchilar

3-guruhgaga ajratilgan. 1-guruh ko‘zi ojizlar, 2-guruh zaif ko‘rvuchi, 3-guruh murakkab nuqsonli.

O‘quvchilarda eshitish a’zosini faoliyatini “Sound Wave Tone Generator” ilovasi yordamida tekshirildi. 8-9-11-sinf o‘quvchilarida tekshiruvlar olib borildi.

Ko‘zida nuqsoni bo‘lмаган 7 nafar o‘quvchi

1-jadval

| № | O‘quvchilarning ism familyasi. | Tug‘ilgan yili | Eshitish chastotasi |
|----------|---------------------------------------|-----------------------|----------------------------|
| 1 | Xakimova Muntazar | 2009-yil | 22114 gers |
| 2 | Raimjanova Muxlisa | 2009-yil | 22077 gers |
| 3 | Muroddillayeva Sarvinoz | 2009-yil | 22073 gers |
| 4 | Muxitdinova Salima | 2009-yil | 18793 gers |
| 5 | Yuldasheva Nodira | 2009-yil | 22171 gers |
| 6 | Xamidova Mubina | 2009-yil | 20910 gers |
| 7 | Usmanova Muslima | 2009-yil | 22404 gers |

Zaif ko‘rvuchi 7 nafar o‘quvchi.

2-jadval

| № | O‘quvchilarning ism familyasi. | Tug‘ilgan yili | Eshitish chastotasi |
|----------|---------------------------------------|-----------------------|----------------------------|
| 1 | Nusratullayeva Abdulloh | 2009-yil | 15148 gers |
| 2 | Qurbanboyev Islomiddin | 2009-yil | 15745 gers |
| 3 | Usmonov Arabboy | 2008-yil | 15059 gers |
| 4 | Husanboyev Islombek | 2008-yil | 14874 gers |
| 5 | Ro‘zimamatova Muhlisa | 2009-yil | 15731 gers |
| 6 | Habibullayev Husniddin | 2007-yil | 15898 gers |

| | | | |
|----------|--------------------------------|-----------------|-------------------|
| 7 | Akramjonov Elyorbek | 2009-yil | 15078 gers |
|----------|--------------------------------|-----------------|-------------------|

Ko‘zi ojiz 7 nafar o‘quvchi**1-jadval**

| № | O‘quvchilarning ism familyasi. | Tug’ilgan yili | Eshitish chastotasi |
|----------|---------------------------------------|-----------------------|----------------------------|
| 1 | Odiljanov Xusanboy | 2009-yil | 25000 gers |
| 2 | Abdurasulov Xusanboy | 2008-yil | 25000 gers |
| 3 | Xolmirzayeva Fotima | 1983-yil | 14758 gers |
| 4 | Zuhriddinov Nurmuhammad | 2012-yil | 22493 gers |
| 5 | Tursunboev Jamshid | 2008-yil | 15897 gers |
| 6 | Abdusattorova Gulyora | 1998-yil | 20910 gers |
| 7 | Solijanov Abdulaziz | 2009-yil | 15396 gers |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. R.Shomaxmudova “Ko‘zi ojiz kishilarni uy ro‘zg’or tutishga o‘rgatish”. Toshkent 1999 yil.
2. Internet ma’lumotlari. PY. http:// Special psypublika . PY. http:// revolution allbest. ru/ pedagogies // w.w.w.Kinder.by.
3. I.K.Xoliqov “Ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitish uslubiy muammolari”. (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to‘plami) 2011 yil.
4. Muzaffarova, X. (2020). Aqli zaif o‘quvchilarning muloqot munosabatlарining pedagogik-psixologik asoslari. Scienceweb academic papers collection.
5. R.SHomaxmudova “Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar inkluziv ta’limi” Toshkent YuNESKO 2005 yil (ilmiy maqola).
6. N.Abidova “Ko‘rishga nuqsoni bo‘lgan bolalar rivojlanish xususiyatlari” (Respublika Ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to‘plami) 2011 yil